

MARKAZIY OSIYODA MINIATYURA SAN'ATI MAKTABLARINING
SHAKLLANISHIDA KAMOLIDDIN BEHZODNING O`RNI

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Tasviriy san'at va dizayn yo`nalishi
2 kurs magistranti **Rustamova M.T.***

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo miniatyura maktablarining shakllanishiga o`zining buyuk hissasini qo`shgan musavvir Kamoliddin Behzod haqida so`z boradi. Shu jumladan sharq minatyura maktablari va ularning nomoyondalari to`g`risida ham ma'lumotlar berilgan.

Kalit so`zlar: Amaliy san'at, Kamoliddin Behzod, maktab, hind, arab, madaniyat va san'at, miniatyura, tasviriy san'at, mo`jaz, rang.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 22.04.2020 yildagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarorida tasviriy va amaliy san'at sohalarida milliy merosimizni tiklash, Kamoliddin Behzodning boy ijodiy merosini xalqimizga to`la yetkazish, soha rivojiga katta hissa qo`shgan atoqli rassom va xalq ustalari xotirasini abadiylashtirish, ijodiy yo`nalishda oliy o`quv yurtidan keyingi ta'limni tashkil etish, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish hamda mamlakatimizda tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn sohasi samaradorligini yanada oshirish ko`zda tutilgan. Shuningdek, 2020-yil oktyabr oyida buyuk musavvir va naqqosh Kamoliddin Behzod tavalludining 565 yilligini keng nishonlanishi ta'kidlangan.

- Kamoliddin Behzod xotirasini abadiylashtirish maqsadida Toshkent shahrining ko`chalaridan biriga uning nomini berildi;

- 2020/2021 o`quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalarida tasviriy va amaliy san'at hamda dizayn yo`nalishida ta'lim olayotgan talabalar uchun Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini ta'sis etildi;

- Yosh iste'dodli ijodkorlarni aniqlash va ularni qo`llab-quvvatlash maqsadida "Kamoliddin Behzod izdoshlari" miniatyura va xalq amaliy san'ati asarlari ijodiy tanlovini tashkil etish va uni har yili an'anaviy tarzda o`tkazib borish belgilandi.

Ma'lumki, O`rta asr Sharq mamlakatlarida tasviriy san'at sohasida uyg'onish ro`y beradi. Ayniqsa, tasviriy san'atning mo`jaz rangtasvir, ya'ni miniatyura deb nomlanuvchi turi, kitob grafikasi bilan bog`liq holda keng rivoj topdi. Natijada Arab (Bog`dod), Eron (Tabriz), Isfahon, Sheroz, Turk, Movarounnahr, Hindiston, Ozarbayjon, Xitoy, Buxoro, Samarqand mo`jaz rangtasvir maktablari paydo bo`ldi.¹

¹ Rahim Hasanov. "Tasviriy san'at asoslari" T.; 2009. 47-bet.

Sharq jumladan, Markaziy Osiyoda miniatyura san'ati ham rivoj topdi. Hirotda shakllangan nufuzli san'at maktabida Kamoliddin Behzod ko'plab musavvirlarga miniatyura san'atidan bilim berdi. Uning shogirdlari Qosim Ali, Muzaffar Ali, Yusuf Mullo, Rustam Ali, Mirsaid Ali, Mahmud Muzahhib, Abdullo va boshqa musavvirlar miniatyura san'ati rivojiga o'z hissalarini qo'shishdi.

Arab miniatura maktabi jahon madaniyati taraqqiyoti tarixida Sharqiy Arabiston xalqlari san'atining ham muhim o'rni bo'lib, ular keyingi avlodlarga qadim yunon-rim madaniyatining ko'pgina yutuqlarini saqlab qolib, uni rivojlantirgan holda yetkazib keldilar. Miniatyuraning yuzaga kelishi va rivojlanishi, arab tilida badiiy adabiyotning ravnaqi, kitobning qadimda Sharqda ilmu ma'rifat manbai sifatida yuksak qadrlanganidan dalolat beradi. Miniatyura -kalligrafiya, sahifalarni ziynatlash, muqova bezagi bilan bir qatorda qo'lyozmaning eng asosiy murakkab dekorativ belgilaridan birini tashkil qiladi, Miniaturaning asosiy ahamiyati matn mazmunini tushuntirish va umuman olganda, dunyoviy xarakterga ega bo'lgan asarlarni bezashdan iborat bo'lgan. Asosan, proza, poeziya, ilmiy traktatlar, tarixiy xronikalar aks etgan asarlarga miniatura ishlangan. Ular orasida «Kalila va Dimna» hikoyalari, yunon vrachi Dioskoridning «Farmakologiya», Rashididdinning «Jam'iut tavorix» asarlari bor edi. O'rta asr qo'lyozmalari faqat guash bo'yoqlari bilan ishlangan. Bu bo'yoqlarni tayyorlash usuli Yaqin Sharqqa VIII asrda Markaziy Osiyo orqali Xitoydan o'tgan. Madaniyat markazlarini vayron qilgan, tez-tez sodir bo'lib turgan bosqinchilik urushlari tufayli ilk arab miniatyuralari deyarli saqlanib qolmagan. Bizgacha yetib kelgan arab miniatyuralarining asarlari ham asosan XIII asrga taalluqlidir.

Osiyoda eng yirik davlatlardan hisoblangan Eron insoniyat taraqqiyotning eng qadimgi markazlaridan biridir. Eron miniatura san'ati dunyoviy rangtasvirning eng yorqin tarixiy sahifalaridan biridir. Bu san'atning bizgacha yetib kelgan birinchi yodgorliklari XI asr boshlariga taalluqlidir, ammo miniatyura janrining sosoniylar davridayoq (III-VII asrlar) mavjud bo'lganligi haqida ham ma'lumotlar bor. Fors miniatyurasida kitob illustratsiyasi shaklida yuzaga kelib, to XVI asrgacha ham kitob va qo'lyozma varag'i bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. Katta shaharlarda, hukmdorlarning saroylarida, mansabdor shaxslarda kitoblarni ko'chirish va bezatish bilan shug'ullanadigan katta-katta ustaxonalar bo'lgan.

XVIII asrlarda Shimoliy Hindistonning poytaxt shaharlari Agra, Dehli, Lohurda rivoj topgan hind miniatura maktabi o'ziga xosligi va yuksak badiiy xususiyatlari bilan Sharq miniatura rassomchiligi tarixida muhim o'rin tutadi. Bu miniatyura rassomchiligining shakllanishi va taraqqiyotida qadimgi mahalliy hind tasviriy san'atining boy an'analari bilan bir qatorda qo'shni va chet mamlakatlar bilan Hindistonning faol madaniy munosabatda bo'lganligi alohida ahamiyatga ega. Bu

Movarounnahr (Samarqand, Buxoro), Xuroson (Hirot), Janubiy Ozarbayjon (Tabriz), Eron (Sheroz) va G'arbiy Yevropa rassomchiligining hind miniaturasidagi ta'sirida seziladi. Jumladan, qo'shni mamlakatlardan ko'pchilik olimlar, shoirlar, mohir rassomlar, xattotlar va boshqa san'at namoyandalari Hindistonga kelib yashab, hind madaniyati taraqqiyotiga o'ziga xos hissa qo'shganlar. Hindistondagi yangi sulola asoschisi Zahiriddin Muhammad Bobur (1525-1530) shoir, xattot, olim bo'lishi bilan bir qatorda rassomchilikka juda qiziqqan. Uning shoh asari «Boburnoma»dan ma'lumki, u tabiat manzaralarini, odamlar qiyofasini usta rassomlardek tasvirlaganki, ular kitobxon diqqatini darhol o'ziga tortadi. Mana shu xususiyat uchun bo'lsa kerak, hind rassomlari bu kitobning forscha tarjimai qo'lyozma nusxalarini bir necha marta ko'plab nafis rasmlar bilan ziynatlaganlar. Bundan tashqari, «Boburnoma»da to'rtta hirotlik va samarqandlik rassomlar - mashhur ustod Kamoliddin Behzod, Shoh Muzaffar, Boysunqur (Sulton Mahmud Mirzo o'g'li), Haydar Mirzolarining nomlari tilga olingan. Xulosa qilib aytganda O'rta Osiyo miniatyura san'atini o'rganish jarayonida qadimgi O'zbekiston, Eron va Hindiston, shu qatorda Hirot miniatyura maktablari san'atiga etibor bermasdan iloj yo'q. O'zbekiston hududiga mansub, qadimgi rangtasvir san'atiga o'ziga xos bebaho namunalarga ega va bular o'z davrida Sharq miniatyurasining yirik maktablari tasirida rivojlangan. Sharq miniatyura maktablari o'ziga xosdir, zero ularning har biri alohida rivojlanish bosqichlariga ega.

Miniatyura maktablari Sharqda juda rivojlangan bo'lib, turli nomlar bilan ataladi. Misol, "Buxora maktabi", "Boburiylar" miniatyura maktabi, "Sheroz" maktabi, "Asfaxon" maktabi, "Yazd" maktabi, "Bag'dod" maktabi, "Tabriz" maktabi kabi yirik tasviriy san'at markazlari mavjud bo'lgan. Temur va Temuriylar davrida Samarqand o'zining ravnaq topishi tufayli jaxonni va G'arbiy Yevropa davlatlarini xam lol qoldirgan edi. Ammo Samarqand miniatyura maktabi to'liq yoritilmagan. Sharqning "Rafaeli" xisoblanmish Kamoliddin Bexzod boshchiligida kamol topgan Xirot maktabining shakllanishida Samarqand miniatyura maktabining tutgan o'rni muximdir. Samarqand Temuriylar davrida ilm-fan, san'at ravnaq topgan davlatning poytaxti edi. Xirot maktabi Samarqanddek san'at va madaniyat o'chog'ining ajralmas bir qismi bo'lgan. Aniq tarixiy ma'lumotlarga ko'ra Kamoliddin Bexzod miniatyura san'atini Pir Said Axmad Tabriziydan o'rgangan. Pir Said Tabriziy esa "Umday ul-musavvir" (musavvirlik peshvosi) nomi bilan mashhur Buxorolik ustoz Jaxongirning suyuqli shogirdi bo'lgan. Ustoz Jaxongir esa temuriylar davlati tasviriy san'atining asoschisi ustoz Gung (Soqov)dan taxsil olgan. Demak, Samarqand tasviriy san'at maktabi o'ziga xos taxlilni ko'mib yotibdi. Ayniqsa "Samarkand devoridagi jang" asari (Turkiyada "Yulduz" kutubxonasida) saqlanmoqda. Bu asarlarda Samarqand tasviriy san'at maktabiga xos portretlar aniqligi va tabiat manzarasini yorqinligi bilan miniatyuralarga o'ziga xos uslub baxsh etgan. Chunki bu ish uslubiy jixatdan Kamoliddin Bexzod ijodiy maktabini eslatadi. Kamoliddin Bexzod

faoliyatidan ancha avval yaratilgan bu asarning muallifi Xalil Mirzo Shoxrux o'z navbatida ustoz Behzodning ustози bo'lgan. Ammo Jaxongir ta'riflab ketgan bu asar xali chop etilmagan. Lekin XIII-XIV asrga mansub bo'lgan bu asar muallifining asl ismi Xalil Mirzo Shoxrux bo'lmagan, chunki o'sha davrda Osiyolik musavvirlar o'z asarining tagiga imzo chekish odati bo'lmagan. Amir Temurning xayotligida boshlangan bu asar uning o'limidan keyin xam davom ettirilgan. Soxibqiron Temur vafotidan keyin Samarqand taxtini egallagan Xalil Mirzoga xam bag'ishlangan bu asarning nixoyasi paytida taxtga Shoxrux Mirzo o'tirgan. Ammo O'rta Osiyodagi Samarqand miniatyura maktablarida portret janri va tarixiy voqealar bayoni miniatyurachilarning izchil mavzusiga aylangan. Samarqandlik musavvirlar Ma'sud ibn Usmoniy Kuxistoniyning Abdulxayrxon tarixi asariga chizilgan "Chingizxonning Sirdaryo soxillarida o'z o'g'illarini qabul etishi", "Gazanxon Urgonda", "Abdullaxon portreti" va Xotifiyning "Temurnoma" asariga ishlangan "Temurning Xindistonga yurishi", Sharafiddinning Ali Yazdiy "Zafarnoma" asariga ishlangan "Temur Samarqand atrofida bazmi jamshida" miniatyuralari yuqoridagilarning tasdig'idir. Samarqand miniatyura maktabining namoyondalaridan Muxammad Murod Samarqandiy, Muxammad Nosir Samarqandiy Mir Said Ali (Tabriziy taxallusini olimlar unga berib, Eron miniatyura maktabiga mansub deb yangi ko'rsatma berib kelganlar, aslida esa Termizlik)lardir. Mir Sayid Alining otasi Mir Mansur moxir musavvir bo'lgan. Osiyodan Xindistonga kelib ijodiy faoliyatlarini davom ettirishgan. Musavvirlardan Muxammad Nosir Samarqandiyning o'n bitta asari Britaniya muzeyida, Parij va Leningrad ilmiy muassasalarida esa bittadan imzo chekkan portretlari saqlanmoqda.

Sharq tasviriy san'atining yirik namoyondasi, mo'yqalamning sehri bilan nafosat olamiga nur baxshida etgan buyuk musavvir Kamoliddin Behzodning nomi jahon tasviriy san'ati tarixida alohida o'rinni egallaydi. Afsuski, bizgacha Behzodning hayoti, ijodiy faoliyati haqida juda kam ma'lumot saqlanib qolgan.

Kamoliddin Behzod (1450-yil, Hirot, hozirgi Afg'oniston —1535-yil, Tabriz, hozirgi Eron) - fors miniatyurasining taniqli musavviri, temuriy hukmdor Husayn Boyqaro va keyinchalik safaviy shohi Taxmasp (875-912—hijriy-1460-1415-milodiy yillar) saroylarining rassomi bo'lgan. Temuriylar saroyida Uyg'onish davrida faoliyat yuritgan. Keyinchalik Tabrizdagi shoh ustaxonalarida Safaviylar xizmatiga kiradi. Taxminan 1450-yilda Hirotida tug'ilgan va 1535-yilda Tabrizda vafot etgan. Behzodga oid deb aytilgan ko'plab asarlardan faqat bir nechtasi uning qo'li bilan yaratilgani tan olingan. U fors miniatyurasi uslubini takomillashtirib, butun dunyoga tanilishiga sababchi bo'lgan.

Behzod madaniyat va san'atning rahnomasi Alisher Navoiy dahosidan yetarlicha bahramand bo'laolganligi ko'pgina adabiyotlarda ta'kidlangan. O'z

davridayoq Alisher Navoiy portretini yaratish borasida Kamoliddin Behzod samarali ijod qiladi. Shuningdek, Navoiyining hayotiga bag'ishlangan va Navoiy portreti tasvirlangan asarlari tufayli Hirotda madaniyat olamida taniladi. Asta – sekin Behzod Hirotda katta hurmatga sazovor bo'la boshlaydi. Hayoti va ijodi davomida juda ko'plab nafis miniatyura asarlarini yaratib, tasviriy san'at tarixida ulkan madaniy meros qoldiradi. Kamoliddin Behzodning Mavlono Mirak Naqqosh, Alisher Navoiy, kabi ko'plab ustozlar rahnamoligida buyuk musavvir va minyaturist bo'lib yetishdi. Ayniqsa, bunda uning san'at va nafosatga zo'r ishtiyoqi, mehnatsevar va zahmatkashligi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Behzod asarlarida dunyodagi bitmas - tunganmas go'zallik, tevarak - atrofni o'rab olgan ijtimoiy muhit, hayotiy lavhalar, inson va uning turli munosabatlari asosiy mavzu qilib olingan. Ayniqsa, mehnatkash xalq mehr - muhabbat bilan real tarzda go'zal bo'yoqlarda tasvirlangan. Behzod asarlarida yashil o'tloq, ulkan tog'lar, zilol suvlar turli ranglar vositasida uyg'unlashib, qirmizi chechakli daraxtlar, xilma - xil gullar, feruza zamin uzra go'zal tabiat manzarasini yuzaga keltiradi. Bunda Behzod mo'yqalamining aql bovar qilmaydigan darajada nozikligini ko'rib hayratda qoladi kishi. Me'morchilik obidalari, o'tmish madaniyatimiz aks ettirilgan lavhalarida esa, Behzodning O'rta Osiyo xalqlari san'ati tarixida birinchi insonparvar musavvir ekanligiga ishonch hosil qilinadi. Shu sababdan ham Kamoliddin Behzodning minyaturalari yoshlarga tugal ma'naviy ozuqa beradi, ularning estetik didini rivojlantiradi. Shu narsa aniqki, Behzodning asarlari nafis mo'jaz rasmlar ilmiy va tarixiy asarlarning nodir qo'lyozmalarini bezashga xizmat qilgan. Kamoliddin Behzod ham o'z davrining eng ulug' olimi, shoir va mutaffakkirlarining asarlariga zo'r mahorat bilan tasvirlar yaratgan. Sh.A. Yazdiyning "Zafarnoma", Adburahmon Jomiyning "Solomon va Ibsol", Amir Hisrav Dehlaviyning "Hamsa", shoir Sa'diyning "Bo'ston", shoir Abdullo Xotifiyning "Temurnoma" kabi ko'plab asarlarini Kamoliddin Behzod o'zining go'zal minyaturalari bilan bezagan. Bunda tasvirlarning mazmuni nihoyatda aniq va sodda, tushunarligi o'quvchilarning badiiy tafakkurini o'stirishda katta ahamiyatga egadir.

Kamoliddin Behzod ijodining xalqchiligi shundaki, u mehnat manzarasini zo'r mahorat bilan xaqqoniy tasvirlaydi. Zeroki, Behzod yashagan davr har qancha og'ir bo'lsa ham, u o'z davrining barcha azob - uqubatlarini, g'am - anduhlarini, qayg'u hasratlarini hamda ilg'or ijtimoiy g'oyalarini, an'analarini, o'zining asarlarida moxirona tasvirlagan. Bu esa, Behzodning o'z zamonasida nihoyatda chuqur xalqparvar va oliyanob g'oyalar sohibi, zabardast realist musavvir ekanligidan darak beradi. Shu sababdan Kamoliddin Behzod asarlari yetuk va barkamol nafis tasviriy san'at asarlari sifatidan juda muhim estetik ahamiyatga egadir. Vaholanki, Behzod ijodida boshdan - oxirigacha estetik jarayon mavjud bo'lib, u to'liq ifoda etilgan. Shu boisdan ham Behzod asarlari go'zal tasviriy san'at asarlari sifatida yoshlarga ma'naviy ozuqa va estetik zavq baxsh etib kelmoqda. Behzod o'zining sermahsul hayoti va ijodi davomida

ulkan san'atkorlar, maktabini yaratdi va o'zining sehrigar san'atining sir - asrorlarini ehtirosli va fidoyi shogirdlariga baxsh etdi.

Kamoliddin Behzodning nafosatga boy jozibali maktabini keng va chuqur o'rganish shu kunning muhim masalalaridan biridirki, buning uchun avvalo, barcha badiiy maskanlarida yoshlarga Behzodning hayoti va ijodini ilmiy jihatdan mustahkam o'rgatish zarurdir. Chunki o'tmishda o'rta va yaqin Sharq, O'rta Osiyo xalqlarining hayoti va turmush sharoitlari, real tarixiy voqea va hodisalar, o'sha davrdagi xalqlarning kiyim kechaklari, asbob - uskunlari, shug'ullanadigan mashg'ulotlari, ulkan xalq shodiyonalari, yig'inlari Kamoliddin Behzodning nafis minyaturasida zo'r mahorat va xaqqoniyat bilan tasvirlangan.

Kamoliddin Behzod asarlarida ifodalangan voqelikni his va idrok etish, yoshlarning hayotni bilishlarida tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Eng muhimi ularda estetik hissiyot va ehtiyoj, insoniy munosabatlar tarkib topadi, dunyoqarashi takomillashadi, ma'naviy va estetik kamoloti mukammal bo'ladi. Biroq hozirgi kunga qadar ham o'quvchilarning badiiy - estetik tarbiyasida keng ijobiy imkoniyatga ega bo'lgan mo'jaz san'atdan samarali foydalanishga jiddiy e'tibor berilayotir. Natijada talabalar Behzodning yuksak badiiy mahorat bilan yaratgan asarlarining mazmuni va chuqur g'oyasni to'g'ri tushunish va anglashda qiynalishmaydi. Aksincha, nafaqat Kamoliddin Behzod ijodini xatto, uning ta'limini olgan qator shogirdlari ijodini o'rganish ham muhim hisoblanadi. Chunki uning shu uslubda shogirdlari ijodida ham o'z aksini topgan. U har bir iste'dodli va umidli yoshlarga o'z san'ati sirini jonu - dili bilan o'rgatib, ularni ilm - fan, san'at yo'liga olib kirgan. Uning shogirdlari ham minyatura san'atini Behzod uslubida rivojlantirganlar.

Kamoliddin Behzodning iste'dodli shogirdlaridan Sulton Muhammad, Qosim Ali, Mavlono Darvish Muhamad, Muzaffar Ali, Yusuf Mullo, Rustam Ali, Shox Muzaffar, Mir Said Ali, Muhammad Muzahhib kabi ko'plab shodirdlari ijodini o'rganish, bugungi kunda yoshlar badiiy ijodining (usta shogirdlik asosida) yuksalishiga ijobiy ta'sir etadi.

Noyob qo'lyozma kitoblarga ishlatilgan miniatyura san'atining katta bir qismi Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ kitobiga zarb etilgan. Atoqli adabiyotshunosh olim Hamid Sulaymonovning sayharakatlari evaziga „Boburnoma“ga ishlangan bebaho miniatyura rasmlar alohida kitob holda nashr qilingan. Unda jamlangan suratlarning birinchisi XVII asr boshlarida ishlangan hushtab shoirona qiyofadagi Zahiriddin Muhammad Bobur siymosidir.

Xulosa qilib aytganda buyuk musavvir ijodida shunday nuqtalar borki, ularni kuzatib san'at asarlari faqat tashqi dunyoni bilish uchungina yaratilmasligini uqasiz. Bu asarlar odamlarda his - tuyg'u qo'zg'atadi. Zamonaga, davr tartibotlariga nisbatan munosabatni shakllantiradi. Behzod va uning ilg'or zamondoshlari ijodida dunyoviy mavzu yetakchi hisoblangan. Bu maktab ijodkorlari islomdan avvaligi

davrlarga ham nazar tashlay olganlar. Shundan ilhomlanib, ular o'z zamonlari mafkuralariga zidroq bo'lsa - da, dadil faoliyat olib borganlar.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 apreldagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ4688- sonli Qarori. // "Xalq so'zi", 2020 yil 22 aprel, №82 (7584).
2. Rustamova Muxtabar Tursunboy qizi Tasviriy san'atni rivojlantirish va zamonlaviylashtirish O'rta va Oliy ta'limni ahamiyati va rivojlantirish strategiyasi // Образование и наука в XXI веке. 14.04.2022.
3. Imomatova, U. (2022). Mustaqillik tasviriy san'atning ishlab chiqarish tendensiyalari. Fan va ta'lim , 3 (8), 175-182
4. Рустамова М. Т. БАДИЙ ТАЪЛИМДА МИНИАТЮРА САНЪАТИНИНГ ЁШЛАР ТАРБИЯСИДАГИ ЎРНИ //INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 36-41.
5. Мирсоатова Лайло Ўткир қизи Тасвирий санъатни ўқитишда кластер ҳамкорлигини йўлга қўйишнинг аҳамияти (Муסיқа ва санъат мактаблари мисолида)// BELARUS, International scientific-online conference, Part 12, March 19th, p:24-27
6. Имоматова У. М. Композицияда эскиз бажариш орқали бадий тасаввурни ошириш //International scientific research conference. – 2023. – Т. 1. – №. 12. – С. 13-17
7. Laylo Mirsoatova/ Use of innovative methods in the development of students' creative abilities / Current research journal of pedagogics (ISSN –2767-3278) volume 03 issue 01Pages: 45-49;
8. Abduvoitovich B. D. TASVIRIY SAN'ATDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI //So'ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. – 2023. – Т. 6. – №. 4. – С. 54-58.
9. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). Steam ta'limini tatbiq etish orqali tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish usullari. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(18), 187–193.
10. Berdiyev Doston Abduvoitovich. (2023). TASVIRIY SAN'ATNING FANLARARO ALOQALAR TIZIMIDAGI O'RNI. PEDAGOGS *Jurnali*, 31(1), 142–148.